



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-sentabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 459,6 mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 162,9 mln AQSH dollariga yoki 26,2 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **459,6** -**26,2** %

(2023- y.: **622,5**)



Saldo

2024- y.: - **78,6** (2023 y.: - **113,8**)



Eksport

2024- y.: **190,5** -**25,1** %

(2023- y.: **254,4**)



Tovarlar: 187,2



Xizmatlar: 3,3



Import

2024- y.: **269,1** -**26,9** %

(2023- y.: **368,2**)



Tovarlar: 269,1



Xizmatlar: -

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 190,5 mln AQSH dollariga (25,1 % ga kamaydi) va import hajmi 269,1 mln AQSH dollariga (26,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 78,6 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 78,9</p> <p>Eksport: 48,6 Import: 30,3</p> <p> 17,2 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 105,6</p> <p>Eksport: 23,8 Import: 81,8</p> <p> 23,0 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 76,0</p> <p>Eksport: 72,1 Import: 3,9</p> <p> 16,5 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 127,6</p> <p>Eksport: 17,3 Import: 110,3</p> <p> 27,8 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 12,1</p> <p>Eksport: 4,8 Import: 7,3</p> <p> 2,6 %</p>
<p>Ukraina</p> <p>TSA – 3,4</p> <p>Eksport: 1,4 Import: 2,0</p> <p> 0,7 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 9,0</p> <p>Eksport: 6,8 Import: 2,2</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 5,2</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 5,2</p> <p> 1,1 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 4,1</p> <p>Eksport: 3,9 Import: 0,2</p> <p> 0,9 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 6,1</p> <p>Eksport: 2,8 Import: 3,3</p> <p> 1,3 %</p>

Sirdaryo viloyati jahonning 46 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (17,2 %), XXRda (23,0 %), Afg‘onistonda (16,5 %), Qozog‘istonda (27,8 %), Turkiyada (2,6 %) va Hindiston (1,1 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	86,8	96,0	78,9
 <i>Eksport</i>	45,1	41,4	48,6
<i>Import</i>	41,7	54,6	30,3
XXR	97,1	124,0	105,6
 <i>Eksport</i>	38,1	36,8	23,8
<i>Import</i>	59,0	87,2	81,8
Germaniya	6,8	3,7	4,1
 <i>Eksport</i>	1,2	0,1	0,7
<i>Import</i>	5,6	3,6	3,4
Qozog'iston	151,8	175,4	127,6
 <i>Eksport</i>	17,9	22,0	17,3
<i>Import</i>	133,9	153,4	110,3
Turkiya	27,5	28,9	12,1
 <i>Eksport</i>	15,6	13,2	4,8
<i>Import</i>	11,9	15,7	7,3
Ukraina	7,3	1,1	3,4
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	1,4
<i>Import</i>	7,3	1,1	2,0
Latvia	1,9	8,3	1,6
 <i>Eksport</i>	-	0,2	1,3
<i>Import</i>	1,9	8,1	0,3
Fransiya	1,0	1,8	1,6
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,0	1,8	1,6

Davomi

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	7,9	7,8	6,1
<i>Ekspost</i>	2,4	2,3	2,9
<i>Import</i>	5,5	5,5	3,2
 Afg'oniston	74,9	120,7	76,0
<i>Ekspost</i>	73,8	120,5	72,1
<i>Import</i>	1,1	0,2	3,9
 Belarus	1,2	1,2	1,6
<i>Ekspost</i>	0,5	0,3	0,7
<i>Import</i>	0,7	0,9	0,9
 Hindiston	1,2	2,5	5,2
<i>Ekspost</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,2	2,5	5,2
 BAA	0,3	0,0	0,4
<i>Ekspost</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,4
 Tojikiston	12,2	5,7	4,1
<i>Ekspost</i>	11,2	4,9	3,9
<i>Import</i>	2,0	0,8	0,2
 Eron	5,0	3,3	2,4
<i>Ekspost</i>	1,9	2,1	1,5
<i>Import</i>	3,1	1,2	0,9
 Pokiston	0,0	0,2	9,0
<i>Ekspost</i>	0,0	0,1	6,8
<i>Import</i>	0,0	0,1	2,2
 Italiya	44,4	5,0	0,8
<i>Ekspost</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	44,1	5,0	0,8
 Polsha	1,2	1,6	1,0
<i>Ekspost</i>	0,6	1,0	0,1
<i>Import</i>	0,6	0,6	0,9




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 35,6 % ulush bilan 163,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,5 % ulush bilan 2,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga kamayib jami TSA'dagi ulushi 51,6 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 222,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 75,1 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 147,5 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 78,9
Eksport – 48,6
Import – 30,3



Qozog'iston

TSA – 127,6
Eksport – 17,3
Import – 110,3



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 6,1
Eksport – 2,8
Import – 3,3



Belarus

TSA – 1,6
Eksport – 0,7
Import – 0,9



Tojikiston

TSA – 4,1
Eksport – 3,9
Import – 0,2



Ukraina


TSA – 3,4
Eksport – 1,4
Import – 2,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (17,2 %), Qozog'iston (27,8 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi, % da)



 Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 216,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 70,1 mln AQSH dollari, import hajmi esa 145,9 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

export →

SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 190,5 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 25,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	254,4	190,5	113,0	74,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	139,2	89,0	144,9	63,9	54,7	46,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	3,9 m.	20,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,4	8,9	62,5	139,9	2,5	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,8	73,7	28,9 m.	0,0	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	8,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11,3	5,4	100,5	47,5	4,4	2,8
Sanoat tovarlari	73,5	61,3	91,3	83,3	28,9	32,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	4,6	4,1	70,9	87,9	1,8	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	17,6	17,7	96,6	100,4	6,9	9,3
Xizmatlar	1,5	3,3	95,3	2,1 m.	0,8	1,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,2 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (32,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (46,7 %) va turli xil tayyor buyumlar (9,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr)


XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	64 997,7	54,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	71,2	27,7 m.
Sabzavotlar va mevalar	23 681,9	123,5
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	13,3	48,9
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	37,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	6 919,1	2,0 m.
Qog‘oz massasi va makulatura	1 325,3	55,9
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 575,3	44,3
Birlamchi shakldagi bo‘lmagan plastmassalar	2 393,3	76,1
O‘g‘itlar (272 guruxiga kiritilgan o‘g‘itlardan tashqari)	445,9	34,9

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	42 018,5	82,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6 303,9	64,4
Cho'yan va po'lat	22,0	3,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	12 055,8	101,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	54,4	5,9 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 782,0	90,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	17 147,1	102,5
Har xil tayyor buyumlar	402,7	90,1
Mebel va uning detallari	75,6	150,8

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlarga 75,1 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 39,4 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	41 397,5	45 893,5	91,6	110,9	2	5
Turkiya	13 168,8	4 780,2	84,4	36,3	5	13
XXR	36 770,9	23 752,9	96,4	64,6	3	11
Qozog'iston	22 021,3	20 080,9	123,0	91,2	4	7
Afg'oniston	120 538,0	72 110,7	163,4	59,8	1	12
Qirg'iz Respublikasi	2 325,0	2 851,7	97,9	122,6	8	4
Tojikiston	4 883,2	3 892,6	45,6	79,7	6	8
BAA	69,0	99,1	25,2	143,6	16	3
Pokiston	3 644,0	6 805,9	51,7	186,8	7	2
Egipt	0,0	826,8	0,0	0,0	17	17
Eron	2 091,8	1 450,9	109,2	69,3	9	9
Belarus	324,0	699,1	64,1	2,1 m.	11	1
Polsha	955,8	142,8	160,2	14,9	10	16
Ozarbayjon	230,1	244,4	23,0	106,2	12	6
Turkmaniston	231,5	59,2	31,0	25,6	13	14
Buyuk Britaniya	98,6	64,5	0,0	65,4	14	10
AQSH	69,3	12,2	44,9	17,5	15	15



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 25,7 % bilan 48,9 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 1,0 % bilan 1,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 68,4 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,0 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (19,3 %), Pokiston (21,4 %), Qozog'iston (30,9 %), hamda Latviya (5,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 23,7 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 23,6 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>237,4 ming AQSH dollari</p> <p>216,4 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>1 010,9 ming AQSH dollari</p> <p>4 017,7 tonna</p> 	<p>Qovun-tarvuz</p> <p>2 624,5 ming AQSH dollari</p> <p>7 561,9 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>5 192,7 ming AQSH dollari</p> <p>28 687,9 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>722,4 ming AQSH dollari</p> <p>689,8 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,7 ming AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>No'xat</p> <p>3 995,8 ming AQSH dollari</p> <p>14 056,8 tonna</p> 	<p>Loviya</p> <p>4 371,1 ming AQSH dollari</p> <p>2 534,8 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	360,0	500,4	2,1
 Pokiston	16 578,1	5 063,7	21,4
 Qozog‘iston	25 554,6	7 325,7	30,9
 XXR	892,5	612,4	2,6
 Afg‘oniston	12 980,6	4 579,6	19,3
 Latviya	3 476,9	1 233,1	5,2
 Tojikiston	372,5	151,9	0,6
 Boshqa davlatlar	8 177,6	4 215,1	17,9

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 30,9 %) tashkil qilmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 269,1 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 73,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (21,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (36,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (18,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,9 % ga kamaydi va 269,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	368,2	269,1	109,6	73,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	138,6	99,1	107,4	71,5	37,6	36,8
Ichimliklar va tamaki	0,1	3,7	0,0	29,4 m.	0,0	1,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,8	5,9	74,0	45,9	3,5	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	26,7	23,5	2,5 m.	88,0	7,3	8,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,5	1,6	170,7	21,8	2,0	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	60,3	48,4	102,6	80,3	16,4	18,0
Sanoat tovarlari	21,8	20,7	106,5	95,0	5,9	7,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	89,4	56,5	98,8	63,2	24,3	21,0
Turli xil tayyor buyumlar	8,0	5,1	165,8	63,9	2,2	1,9
Boshqa tovarlar	3,0	4,6	0,0	153,7	0,8	1,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	78 419,2	63,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 451,1	52,7 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2 791,4	37,9
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	8 177,9	142,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	518,9	15,1
Probka va yog'och-taxtalar	3358,9	73,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	394,2	7,0
Ko'mir, koks va briketlar	15 288,1	72,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 632,5	21,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 676,4	155,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	24 202,6	76,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8 624,0	158,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	7 648,1	56,8

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	4 230,4	77,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 625,1	76,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 752,5	63,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	9 775,1	162,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	744,0	32,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	19 537,2	39,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	17 472,5	58,0
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	3 876,7	92,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 972,9	64,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	847,9	49,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	874,9	80,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	289,0	127,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 54,8 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyati 45 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	3 575,9	3 338,1	63,8	93,3	8	10
Rossiya	54 619,0	30 254,6	130,9	55,4	3	14
XXR	87 194,9	81 822,2	147,8	93,8	2	9
Qozog'iston	153 397,2	110 267,9	114,6	71,9	1	12
Turkiya	15 763,3	7 287,1	132,1	46,2	4	15
Koreya Respublikasi	1 121,2	4 554,3	15,4	4,0 m.	13	5
Litva	8 060,4	250,5	4,3 m.	3,1	5	17
Vengiriya	1 157,6	1 610,8	188,8	139,1	11	7
Bolgariya	3 780,0	310,2	132,2	8,2	10	18
Turkmaniston	12,0	134,4	0,0	11,2 m.	20	3
Belarus	937,6	921,0	2,1 m.	98,2	9	8
Bangladesh	0,0	0,0	136,4	0,0	14	19
Italiya	4 953,1	764,8	11,2	15,4	7	16
Buyuk Britaniya	94,3	585,9	7,4 m.	6,2 m.	19	4
Eron	1 165,4	962,8	37,6	82,6	12	11
Polsha	569,7	835,8	90,7	146,7	15	6
AQSH	45,5	578,3	132,9	12,7 m.	18	2
Afg'oniston	180,4	3 880,1	30,8	21,5 m.	17	1
Azərbayjon	0,0	433,5	37,3	0,0	16	20
Qirg'iz Respublikasi	5 464,8	3 271,9	99,7	59,9	6	13



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 42,6 % bilan 114,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % bilan 0,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi 56,5 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 36,8 % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,0 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr)




2024- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,9 mln AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 36,3 mln AQSH dollari (64,3 %), Hindiston — 4,0 mln AQSH dollari (7,1 %) va Turkiya – 5,4 mln AQSH dollari (9,6 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 20,7 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 7,7 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (9,8 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (2,6 mln AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (2,8 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.